

## Beshta tashabbus amalda

"Gidromelioratsiya" fakulteti "Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish" ta'lif yo'nalishi 2 - bosqich talabalari benihoya shod. Ular "O'quv-ilmiy markaz"da bo'lib o'tayotgan "Gidrologiya" fanidan o'quv amaliyoti davrida, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbus doirasida uyushtirilgan sport musobaqasida qatashishdi. Shaxmat turi bo'yicha Matyakubov Mirbek, shashka turi bo'yicha Ergashev Jahongir, armrestling bo'yicha Bobodo'stov Bobur, yugurish turi bo'yicha Sapayev Doniyorlar faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor R.Choriyev musobaqa g'oliblariga diplomlar taqdim etdi. Ayni damda fakultet dekanining esdalik sovg'alari ham topshirildi.



**Institut Matbuot xizmati rahbari R. Jumaniyozov**